

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10897119>

UZUN TUMANI TABIIY RESURSLARI VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH MASALALARI

Ergashev Muhiddin Dulmat o'g'li

O'zbekiston Milliy Universiteti Geografiya va geoaxbarot tizimlari fakulteti

Amaliy geografiya (sohalar bo'yicha) mutaxassisligi

Iqtisodiy geografiya kafedrası

2-bosqich magistranti

Email: muhiddinergashev043@gmail.com

ANNOTATSIYA

Uzun tumani Surxondaryo viloyatning shimoliy qismida joylashgan. Relyefi, asosan, Oq ostona maqbarasi, tog' va adirliklardan iborat. Tuman tabiiy resurslarga boy hisoblanadi. Bunda asosiy e'tibor resursdan foydalanish jarayonida tabiatga zarar yetkazmaslikka qaratiladi.

***Kalit so'zlar:** tabiiy sharoit, tabiiy resurs, mineral boylik, iqlim resurslar, resurslardan oqilona foydalanish.*

NATURAL RESOURCES OF UZUN DISTRICT AND ISSUES OF THEIR WISE USE

Ergashev Muhiddin Dulmat o'g'li

ANNOTATION

Uzun district is located in the northern part of Surkhandarya region. The terrain consists mainly of the White Astana Mausoleum, mountains and hills. Most of the adiriks are located at the foot of the Bobotog and Hisar mountain ranges. The district is rich in natural resources. In order to use these resources effectively and rationally, the composition of resources must be thoroughly studied. The main focus is on not harming nature in the process of resource use.

***Key words:** natural conditions, natural resources, mineral wealth, climate resources, rational use of resources.*

Uzun tumani O'zbekiston Respublikasining eng chekka janubiy viloyati bo'lgan Surxondaryo viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Uzun tumani 1942-yil 12-yanvarda tashkil etilgan. 1959-yil 15-oktabrda Sariosiyo tumaniga qo'shib yuborilgan, 1991-yil 29-martda qayta tuzilgan. Uzun tumani shimol, sharq va janubi-

sharqdan Tojikiston Respublikasi, shimoliy-g'arbdan Sariosiyo, janubdan Qumqo'rg'on, janubi-g'arbdan Sho'rchi, g'arbda Denov tumanlari bilan chegaradosh. Tumanning faqat sharqiy va g'arbiy chegaralari tabiiy chegaralarga mos keladi. Sharqda Kofirnihon daryosi orqali Tojikiston bilan, g'arbda Surxondaryo daryosi orqali Denov tumanidan ajralib turadi. Maydoni 1.84 ming km.kv. ga teng. Chegara uzunligi 373,9 kmni tashkil etadi. Shundan Tojikiston davlati bilan 120,5 km, Sho'rchi tumani 66,4 km, Sariosiyo tumani 11,8km, Denov tumani 37 km, Qumqo'rg'on tumani 71,8 km bilan chegaradosh. [1]

G'uzor tuumanining tabiiy resurslariga quyidagilar kiradi:

- tumanning iqlimi va ichki suvlari,
- o'simlik dunyosi,
- hayvonot olami,
- tuproqlari,
- mineral boyliklari kiradi.

Uzun tumanining iqlim sharoitlari uning joylashgan geografik o'rniga bog'liqdir. Tuman iqlimining shakllanishida uning tog' oraliq botig'ida joylashganligi muhim ro'l o'ynaydi. Tuman iqlimini shakllanishida sharq va g'arb ham shimol tomonlari baland tog' tizmalarining mavjudligi va janub tomonning ochiqligi asosiy o'rin tutadi. Subtropik mintaqada joylashganligi tufayli katta miqdorda quyosh radiatsiyasini oladi. Quyosh radiatsiyasining o'rtacha yillik yalpi miqdori 8100-8500 MJ\J ni tashkil qiladi. Vegetatsiya davri 290-300 kunga yetadi. Yil davomida quyosh nur sohib turish davomiyligi 2800-3100 soatni tashkil etadi.

Tuman iqlimi keskin kontinental. Iyulning o'rtacha harorati +28°C, yanvarning o'rtacha harorati -1 +4 °C.

Uzun tumanining suv obyektlariga daryolar, qurub qoladigan soy va jilg'alar, kanallar kiradi. Asosiy suv manbalarini Hisor, Bobotog' tizmalaridagi qor va muzliklar hamda yomg'ir suvlari tashkil etadi. Tuman hududida hosil bo'ladigan doimiy oqadigan daryo va soyliklar yo'q. Asosiy daryolar Tojikiston davlatidan oqib keladi, faqat tuman hududida hosil bo'ladigan bir nechta soylar bor, ular ham may oylarida qurib qoladi. Chunki bu soylar Bobotog'dan boshlanganligi, aprel-may oylarida Bobotog'da qorlar erib ketgani uchun ham tuman hududida doimiy oqadigan daryo va soylar yo'q.[1]

Bu mintaqaning tabiiy sharoitlari tekislik qismidan farq qilib relyefi xilma-xil yog'in tekisliklarga qaraganda ancha ko'p, shu boisdan o'simlik va hayvonot turlariga ham boydir. Uzun tumani dengiz sathidan 500 m balandlikgacha bo'lgan qismida tumanning janubi-g'arbiy va g'arbiy qismlari ya'ni Surxondaryoning chap qirg'oq bo'ylari, Kofirnihon daryosining o'ng qirg'og'i kiradi. Daryo qayirlarida qisman to'qay o'simliklari mavjud. Bobotog'ning g'arbiy va janubi-g'arbiy qismlarida

ko'proq efemer o'simliklar hamda shuvoq, kavrak, qo'ziquloq, bir yillik astragal, javdar, bug'doyiq kabilar mavjud.

Tuman hududida hayvonlardan bo'ri, tulki, kiyik, morxo'r (burama shoxli taka), qoplon, to'ng'iz (yovvoyi cho'chqa), qobon, ayiq, jayra; qushlardan, kaklik, g'oz, o'rdak, mayna, qarg'a, burgut, bedana, kaptar, bulbul, qaldirg'och, musicha, xo'jasavdogar, ukki, tasqara, qirg'ovul, qaldirg'och, qashqaldoq, oqbovur, musicha, kalxat, jannat qushi, burgut uchraydi. Sudralib yuruvchilardan echkamar, ilonlar, kaltakesak, toshbaqa yashaydi[2].

Uzun tumani tabiiy resurslaridan foydalanish oqibatida bir qator muammolar shakllangan. Yechimini kutayotgan bu muammolar jumlasiga yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, tuman tabiatini muhofaza qilish, atrof-muhitni ifloslanishdan asrash, mineral xom ashyo resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, landshaftlarni rekul'tivatsiya qilish (qayta obodonlashtirish) kabilar kiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etishda tuman rahbariyati tomonidan zaruriy chora-tadbirlar ishlab chiqarilish talab etilmoqda.

Insonlarning tabiatga va tabiiy jarayonlarga salbiy ta'siri oqibatida biologik resurslar kundan kunga kamayib bormoqda, landshaftlarning tashqi ko'rinishi o'zgarmoqda, bir so'z bilan aytganda tabiati tanazzulga yuz tutmoqda. Bunday jarayonlar deyarli viloyatning barcha hududlarida mavjud bo'lib, birgina Uzun va unga qo'shni bo'lgan Denov, Sariosiyo, Sho'rchi, Oltinsoy tumanlari Tojik alyuminiy zavodining ta'siridan biologik resurslarga ta'sir ko'rsatmoqda. Zavod mo'rilaridan har yili 40 ming tonna zaharli gaz tutunlar havoga tarqaladi. Shuning 109 tonnasi vodorod ftoridir. Qolgan 20891 tonnasi oltingugurt angdriti, azot oksidi, uglerod oksidi tashkil etadi. . Zavod tog' etagida joylashganligini hisobga olsak, bir sutka davomida shamol 14-15 soat Surxon vodiysiga qarab esadi, natijada zaxarli gazlar deyarli kun davomida Surxondaryoga tomon esib Uzun, Sariosiyo, Denov, Oltinsoy va Sho'rchi tumanlari havosini ifloslaydi. Bu zaharli gazlarning asosiy miqdori tabiiyki, shu hududlarga to'g'ri keladi. Uning tarqalish radiusi esa tog'dan esadigan shamolning tezligiga bog'liq. Agar shamolning tezligi ortadigan bo'lsa, unda bu zarar hatto Qumqo'rg'on, Jarqo'rg'on tumanlarigacha yetib boradi va uning ta'siridan barcha tirik mavjudod zarar ko'radi. Bu zaharli moddalar o'simliklarga, hayvonot dunyosi hamda inson organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatib, o'ndan ortiq turli kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Yuqorida tilga olingan kimyoviy zararli gazlar barcha yovvoyi va madaniy o'simliklar rivoji, shakllanishi, taraqqiyoti va hosildorligiga katta zarar yetkazmoqda. Hattoki bir vaqtlar dovrug'i doston bo'lgan Dashnobod anorlari ham o'z shuhratini yo'qotdi.

Yovvoyi va madaniy o'simliklar fenologik kuzatilganda zaharlangan zonalardagi o'simliklarning meva va barglarini to'kib yuborishi, umurtqasiz hamda

umurtqali hayvonlarning nasl bermay qo‘yishi, ular uchun xavfli holatlarning yuzaga kelishidan darak beradi. [4]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki tumanning tabiiy sharoitini o‘rgangan holda, mavjud imkoniyatlaridan oqilona foydalanish kelgusi yaqin yillar ichida tumanni rivojlantirish yo‘larini ishlab chiqish. Bu o‘rinda ayrim o‘simliklar o‘zining dorivorligi bilan farmasevtikani rivojlantirish uchun ko‘plab imkoniyatlarni yaratadi. Bu orqali tuman YaIM hajmining o‘shishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. *Mengaliyev R.O. Uzun tumani tabiiy resurslaridan oqilona foydalanishning tabiiy geografik asoslari magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etgan dissertatsiyasi. -T.: 2022, 78 b*

2. *Murzaev X Uzun tumani tarixi –T.: “Hoширлик ёғдуси” 2015 69 бет*

3. *Ro‘ziyev A.N. Surxon-Sherobod vodiysida qishloq xo‘jaligini joylashtirish va rivojlantirish masalalari.-T.: 2002*

4. *Surxondaryo viloyati siyosiy-ma‘muriy ma‘lumotnomasi kartasi.-T.: “Yergeodezkadastr” davlat qo‘mitasi. 2016.*

5. *Ярашев Қ.С. Сурхондарё Ботиги парагенетик ландшаф комплекслари ва уларнинг геоэкологик районлаштириши Г.ф.н. илм. дар. олиш учун тақдим этган дисс. –T.:2018, -135 б.*